

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

“EKOLOGIYA VA GEOGRAFIYA” KAFEDRASI

Xidiraliyev Komil Esanovich

**5110500-Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabalari
uchun “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (Jahon mamlakatlari iqtisodiy
va ijtimoiy geografiyasi, Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy
geografiyasi, O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)” fanidan
kurs ishlarini tayyorlash va himoya qilishga oid uslubiy ko'rsatma**

Guliston – 2021

Xidiraliyev K.E. 5110500-Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun **“Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, Markaziy osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)”** fanidan kurs ishlarini tayyorlash va himoya qilishga oid uslubiy ko'rsatma.-Guliston. 2021.-26 b.

Uslubiy ko'rsatma Guliston davlat universiteti O'quv-metodik kengashi tomonidan (3-bayonnoma 20.01. 2021 yil) nashrga tavsiya qilingan.

Taqrizchilar:

Karshibayeva L. K. g.f.n., dotsent.
Doniyorov S.A. b.f.n., dotsent.

MUNDARIJA:

1. Kurs ishiga qo'yiladigan talablar.....	4
2. Kurs ishining taxminiy tuzilishi va bo'limlarning mazmuni.....	4
3. Kurs ishini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar.....	5
4. Kurs ishini baholash mezonlari.....	10
5. Tadqiqot mavzusi, maqsad va vazifalari.....	12
6. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fanidan kurs ishlari mavzulari banki.....	22
7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	25

1. Kurs ishiga qo'yiladigan talablar

Kurs ishlarining mavzulari kafedra tomonidan belgilanadi. Talabaga kurs ishi mavzusini tanlash imkoniyati beriladi. Bunda talaba o'zini qiziqtirgan mavzuni kurs ishi mavzusi sifatida olishi mumkin. Kurs ishini tayyorlash jarayonida talabaga ilmiy rahbar tayinlanadi.

Kurs ishini tayyorlash uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida alohida soatlar, ya'ni vaqt ajratilishi lozim. Kurs ishini tayyorlashda talabalarga quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

a) bir kurs doirasida referat, kurs ishlarining ketma-ketligi;

b) bir-biriga yaqin fanlar: pedagogika, psixologiya, xususiy fanlar va ularni o'qitish metodikasi kabi fanlardan talabalar tomonidan bajarilgan kurs ishlari va turli vazifalarni muvofiqlashtirish;

v) pedagogik amaliyotning barcha ko'rinishlaridan foydalanish;

g) statistic ma'lumotlar tahlili va b. q.

Talabaning kurs ishi ustidagi izlanishlari nazariyani chuqurroq o'rganish, ilgari olingan bilimlarni tizimlashtirish va ularni amaliyotda samarali qo'llash, mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

2. Kurs ishining taxminiy tuzilishi va bo'limlarning mazmuni

1. Kurs ishi quyidagilardan tashkil topadi: kirish -umumiy hajmning 10%; nazariy qism - nazariy masalalarni qo'yishdan ko'zlangan maqsad, ularni o'rganishning belgilangan darajasidan kelib chiqqan holda umumiy hajmning 25-30%; tahlil qismi - 15-20%; tajriba-sinov ishlari haqidagi qism - 30-35%; xulosalar - 5%; adabiyotlar ro'yxati.

2. Kurs ishining tuzilishi, undagi boblar mutanosibligi har bir ishning mavzusi, ob'ekti, predmeti, maqsadiga bog'lik holda alohida belgilanadi. Kurs ishining hajmi matn, jadvallar, illyustratsiya materiallari bilan birga 25-30 saxifani tashkil etishi lozim.

3. Kirish qismida mavzuning ijtimoiy va pedagogik jihatdan dolzarbligi asoslanadi, muammo belgilanadi, Tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsadi ko'rsatiladi, tadqiqotning farazi, vazifalari, metodologik asosi kiritiladi, tanlangan mavzuning ishlanganlik darajasi aniqlanadi, tadqiqot olib borish metodlari, manbalar, dastlabki ma'lumot qisqacha tavsiflanadi. Kirish qismining so'nggi varianti ishning boshqa qismlari tayyor bo'lganidan keyin yoziladi.

4. Kurs ishining bosh qismida mavzuning asosiy masalalari bo'yicha nazariy ma'lumotlar bayon etiladi, ilmiy maktablar mualliflarining qarashlari tahlil qilinadi va umumlantiriladi, ko'rib chiqilayotgan soxada olib borilgan tadqiqotlar guruhlashtiriladi, turli metodik yondashuvlar baholanadi. Kurs ishining o'z qarashlari, kontseptsiyasi belgilanadi, bular asosida ta'kidlovchi va shakllantiruvchi tajribaga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik yondashuv tanlanadi. Mazkur qism mazmunini bayon etish jarayonida muallif nazariy bilimlardan pedagogik amaliyot tahliliga, xususiy hodisalar tahlilidan nazariy umumlantirishga o'tilishi zarur.

5. Taxliliy qismda o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar kollejlari muassasasida, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishnshg, ularni rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya o'qitishni tashkil etishning ahvoli, bunda qo'llanayotgan metodlar va b. tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologiyasi asosida umumiy o'rta ta'lim yoki kasb-hunar kollejlari ta'limda vujudga kelgan vaziyat taxlil qilinadi, ishning maqsad va vazifalariga muvofiq tanlab olingan hamda shakllantiruvchi tajriba-sinovni o'tkazish metodikasini va mazmunini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tadqiq qilinadi va qayta ishlanadi.

6. Tajriba qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish metodlari, mazmuni bo'yicha ishlanmalar, ishlarni olib borish metodikasi; qo'yilgan masala va vazifalarni xal etish yo'llari; olingan natijalarni ta'lim muassasalariga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar. Shu maqsadda ilmiy qarashlar negizida, shaxsiy tajriba va pedagoglar tajribasining tahlili asosida mazkur ta'lim muassasasida o'rganilayotgan hodisaning dinamikasi va hozirgi ahvoli yoritilishi kerak (avval ahvol qanday edi, muayyan vaqt ichida nima o'zgardi, nimaning natijasida yutuqqa erishildi, miqdor va sifat o'zgarishlari nimalarda namoyon bo'ldi, qanday qiyinchiliklar duch kelindi va ular qanday bartaraf etildi va x.z.).

7. Xulosa qismida talabalarning tadqiqot ishini olib borishdagi pozitsiyasini ko'rsatuvchi bajarilgan ish natijalari bo'yicha xulosalar beriladi. Shuningdek, taxlil natijalari o'quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar, ushbu tavsiyalarni joriy etish yo'llari ko'rsatiladi.

3. Kurs ishini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar

Kurs ishini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar quyidagilar hisoblanadi:

1. Kurs ishi texnik va ilmiy xujjatlarni kompyuterda terish qoidalariga muvofiq ravishda standart qog'ozning bir tomoniga yozilgan bo'lishi kerak. Rasm va jadvallar umumiy talablarga qat'iy rioya qilingan holda, ya'ni rasm osti yozuvlari va rasm nomi, tartib raqami, havola, izoh, xulosalar bilan birga berilishi hamda matnda uchrashiga ko'ra tartib bilan joylashishi kerak.

2. Kurs ishida sahifalar, jumladan, jadval va rasmlar ham, oddiy usulda raqamlanadi. Sahifalash mundarijadan boshlanadi.

3. Grafik, jadval, hujjat, ishning taxliliy va tajriba qismlarini izohlovchi hisob-kitob ko'rinishidagi ikkinchi darajali materiallar kurs ishining ilovasida berilishi mumkin.

4. Grafik material mavjud talablarga muvofiq ravishda standart qogozda bajarilishi kerak.

5. Kurs ishining barcha qismlari mavzu va rejaga mos ravishda o'zaro mantiqiy bog'liqlikda bo'lishi lozim. Ish foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati bilan yakunlanadi.

6. Kurs ishini rasmiylashtirishda quyidagi talablarga javob berish zarur:

- matnda ishning tuzilishi aniq belgilanadi: rejaga muvofiq uning asosiy bo'limlari ajratiladi, rejadagi barcha masalalar chuqur va to'liq yoritiladi, fikrlar ilmiy uslubda bayon etiladi;

- foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati ilovadan oldin beriladi;

- manbalarga havolalar (manbaning muallifi, nomi, nashr joyi, yili, sahifa) varaqning quyi qismida yoki kvadrat qavsda ko'rsatiladi;
- Kurs ishining sahifalari tikiladi va maxsus jildga yig'iladi, jildning muqovasi ish titul varag'ining aynan nusxasi bo'lishi lozim.

Tugallangan kurs ishi muallif va maslaxatchi (yoki maslaxatchilar, agar ular talabanning ishiga raxbarlik qilgan bo'lsalar) tomonidan imzolanadi hamda raxbarga taqdim etiladi.

O'n kun ichida rahbar kurs ishiga taqriz yozadi. Taqrizda ishning barcha bo'limlari tavsiflanadi. Unda ijobiy jihatlar, kamchiliklar, muallifning mustaqil fikrlash darajasi, talabada ilmiy adabiyot bilan ishlash va tajriba-sinov tadqiqotini tashkil etish ko'nikmasining mavjudligi, olingan natijalarning ahamiyati va asoslanganligi, ularni amalda qo'llash imkoniyatlari hamda kurs ishini himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosa.

Kurs ishi raxbarning taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etiladi. Kafedra mudiri kurs ishini himoyaga tavsiya etish masalasini hal etadi va ishning tegishli joyiga imzo chekadi.

Kafedra barcha talablarga javob beradigan, yakunlangan kurs ishini taqdim etgan talabalarni ximoyaga tavsiya etadi. Agar ishning sifati bilan bog'liq e'tirozlar mavjud bo'lsa, uni himoyaga qo'yish masalasi ilmiy rahbar ishtirokida o'tadigan kafedra majlisida xal etiladi.

Kurs ishining umumiy tavsifi:

- mavzuning dolzarbligi va uning muallif tomonidan asoslanganligi;
- talaba tomonidan mazkur mavzuni tanlashdagi ijtimoiy-pedagogik sabablarning asoslanganligi,
- kurs ishida ko'rib chiqish uchun qo'yilgan masalalarning to'g'riligi va mantiqiyliigi;
- mavzuni yoritish uchun foydalanilgan manbalarning miqdor va sifat nuqtai nazaridan baholanishi;
- pedagogik amaliyotni tahlil qilish, tajriba o'tkazish sifati, uni nazariy idrok etish darajasi;
- bigiruv malakaviy ishining tuzilishi, mazmuni va rasmiylashtirilishiga qo'yilgan talablarning bajarilganligi.

Asosiy qismning tavsifi:

- adabiyotlarni taxlil qilish sifati, muammoning nazariy asoslarini yoritishning qamrovi;
- ishda amaliy tajribaning, tajriba-sinov materiallarining to'liq va chuqur taqdim etilishi;
- ularning nazariy jixatdan baholanishi, ishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish ko'nikmasining mavjudligi;
- maktabgacha, umumiy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish va uni boshqaruv sifatini yaxshilash uchun tavsiya etilgan tadbirlar tizimining bahosi;

- mavzuni bayon etish uslubi va uning muallif tomonidan belgilangan masalalar doirasining nazariy-amaliy yo'nalishiga mantiqan mos ekanligini;
- muallifning ko'rib chiqilayotgan masalalarga bo'lgan munosabati, o'rganilgan mavzu bo'yicha fikrlarning yangiligi.

Kurs ishi ishining natijalari va sifatini baholash:

Kurs ishi ishining umumiy tavsifi:

- mavzu;
- mavzu tanlanishining sabablari;
- yoritilgan asosiy masalalar doirasi;
- kurs ishining rejasi;
- mavzuni yoritishda foydalanilgan asosiy adabiy manbalar;
- kurs ishida keltirilgan va baholangan tajriba-sinov ishiiyng qisqacha mazmuni.

Asosiy qismning tavsifi:

- mavzuda aks etgan muammoning mohiyati;
- asosiy masalalar bo'yicha o'lymlarning qarashlari va muallifning ularga bergan bahosi, taxlili;
- masala nazariyasi jihatidan muammo yechimini topish tajribasining tahlili va bahosi;
- o'quvchilar bilan ishlash usullarini yoki boshqaruvni takomillashtirish yo'llari, o'rganilganlarni amalda samarali qo'llash bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilash;

Talabaning o'zi bajargan kurs ishiga, erishgan natijalari va ish sifatiga bergan bahosi:

- mavzu bo'yicha ishlash davomida qanday vazifalar qo'yilgan edi va ular qay tarzda bajarildi;
- bajarilgan ish natijalari bilan qoniqish darajasi;
- mavzuning qaysi qirralari bo'yicha tadqiqot davom ettiriladi.

Axborot berilganidan so'ng talaba savollarga javob beradi. Kurs ishi mazmuni bo'yicha nafaqat komissiya a'zolari, balki himoyada ishtirok etuvchi istalgan shaxs savol berilishi mumkin.

So'ngra ilmiy rahbar xulosasi va taqrizchining xulosasi o'qib eshittiriladi.

Keyin ish muallifi taqriz va xulosalarda keltirilgan e'tirozlar yuzasidan o'z fikr-muloxazalarini bildiradi hamda himoya davomida berilgan savollarga javob beradi.

Shundan keyin ishning muhokamasi boshlanadi, unda xohlovchilarning barchasi ishtirok etishi mumkin.

Himoya yakunida muallifga e'tirozlarga sabab bo'lgan o'rinlarni izohlash, tegashli ma'lumotlar keltirish, qo'shimcha materiallar bilan qisqacha tanishtirish imkoni beriladi.

Himoyadan keyin kurs ishi oliy ta'lim muassasasining kutubxona fondida yoki tegishli kafedralarda saqlanadi. Ishlardan talabalar, boshqa ta'lim muassasalari o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Kurs ishi kirish, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat bo'lishi mumkin. SHuningdek, ishda kartalar, kartasxemalar, jadvallar va diogrammalarning bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Kurs ishi kirish qismida mavzuning dolzarb ahamiyatga egaligi, mavzu doirasida ijod qilingan respublika va xorij davlatlari olimlarining tadqiqotlariga munosabati tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti hamda ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslanadi.

Tadqiqot ishining birinchi bobi tadqiq etilayotgan mavzuning nazariy-metodologik asoslariga bag'ishlanishi, ikkinchi bobida tadqiq etilayotgan mavzuning bugungi kundagi holati va ahamiyati, undagi asosiy omillar, olib borilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili, olingan natijalar aks etishi maqsadga muvofiq. Ishning xulosa qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilib, kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy fikr va mulohazalar, takliflar keltirilishi lozim.

Iqtisodiy geografiya yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishining rejasini quyidagicha tuzish tavsiya etiladi:

Mavzu: O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining asosiy xususiyatlari

Reja:

Kirish

I- bob. Zamonaviy urbanizatsiya va aholining hududiy joylashuvi

1.1. Urbanizatsiya va aholining takror barpo bo'lishi.

1.2. Zamonaviy urbanizatsiya jarayoni.

II- bob. O'zbekistonda mustaqillik yillarida shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayolarining ba'zi bir xususiyatlari

2.1. O'zbekistonda mustaqillik yillarida shaharlar rivojlanishi

2.2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda urbanizatsiyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

III- bob. O'zbekistonda urbanizatsiya siyosati va shaharlarda sanoat ishlab chiqarishning muammolari

3.1. O'zbekistonda urbanizatsiya siyosati.

3.2. O'tish davrida respublika shaharlarida sanoat ishlab chiqarishning muammolari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar

Iqtisod yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishining rejasini quyidagicha tuzish tavsiya etiladi:

Mavzu: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari

Reja:

Kirish

I- bob. Tashqi iqtisodiy faoliyatning mohiyati va ilmiy-nazariy jihatlarini

1.1. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tashqi iqtisodiy aloqalarning o'rnini va ahamiyati.

1.2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rniga iqtisodiy baho

1.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasi

II- bob. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini tashkil etish va rivojlantirish strategiyasi

2.1. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi tashqi iqtisodiy aloqalarining tahlili.

2.2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish ahamiyati.

III- bob. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalariga ta'siri

3.1. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri.

3.2. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion loyihalarni amalga oshirish va ularni modernizatsiyalash siyosati.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar

Kurs ishning titul varog`ini namunasini keltiramiz.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiiy fanlar fakulteti
Ekologiya va geografiya kafedrası
Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi**

**«Himoyaga ruxsat etilsin»
Fakultet dekani _____ dots.
Yuldashov A
«___» _____ 2021 y.**

**5110500-“Geografiya o'qitish metodikasi” ta'lim yo'nalishi
21-17-guruh talabasi Bekqulov Ibrohimning
“O'zbekistonda urbanizasiya jarayonining asosiy xususiyatlari”
mavzusidagi**

KURS I SH I

**Ilmiy rahbar: “Ekologiya va geografiya”
kafedrası dotsenti, g.f.n.
_____ K.Xidiraliyev**

**«Himoyaga tavsiya etilsin»
“Ekologiya va geografiya”
kafedrası mudiri, g.f.n. dots. L. K. Karshibayeva**

_____ 2021
«___» _____

GULISTON– 2021

4. Kurs ishini baholash mezonlari

Kurs ishi himoyasining baho ko'rsatkichlari

maksimal bal (100 %)	To'plangan ball diapazoni	Baho ko'rsatkichi
100	86-100 71-85 55-70 0-54	5 (a'lo) 4(yaxshi) 3 ("qoniqarli") 2 ("qoniqarsiz")

Kurs ishini baholash mezonlari va ular bo'yicha baholashga oid ko'rsatmalar (namuna)

№	Kurs ishini baholash mezonlari	Mezonlarga javob berish darajasi	Ballari
1.	Kurs ish mavzui dolzarbligining asoslanganligi	- yetarli darajada asoslangan	9-10
		- yetarli darajada asoslanmagan	7-8
		- qisman asoslanmagan	5-6
		- asoslanmagan	0-4
2.	Kurs ish mavzuining to'la yoritilganligi:	- 100 % yoritilgan	11-12
		- 75 % yoritilgan	8-10
		- 50 % yoritilgan	5-7
		- 30 % dan kam yoritilgan	0-5
3.	Kurs ishining hajmi va uning matniga qo'yilgan talablarga mosligi:	- hajmi va matniga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi	7-8
		- hajmi to'la va matniga qo'yilgan talabga qisman javob beradi	5-6
		- hajmi yetarli- emas va matniga qo'yilgan talabga qisman javob beradi	3-4
		- xajmi va matniga qo'yilgan talablarga javob bermaydi	0-2
4.	Kurs ish tuzilishining to'g'ri tanlanganligi:	- to'g'ri tanlangan	7-8
		- ba'zi bir chetlanishlar bor	5-6
		- ko'p chetlanishlar bor	3-4
		- to'g'ri tanlanmagan	0-2
5.	Kurs ishi nazariy qismi materiallarining	- to'la yoritilgan	11-12
		-ba'zi chetlanishlar bor	8-10
		- qisman yoritilgan	5-7

	yoritilishi:	- to'la yoritishgan	0-5
6.	Kurs ishi amaliy qismi	- to'la yoritilgan	12-14
		- texnologik jarayon tavsifi va hisob-kitoblarda ba'zi bir nuqsonlar mavjud	9-11
	materiallarining yoritilishi:	- texnologik jarayon tavsifi va hisob-kitoblarda qo'pol xatolar mavjud	6-8
		- texnologik jarayon tavsifi va hisob-kitoblarda qo'pol xatolar mavjud va to'la yoritilmagan	0-5
7.	Kurs ishi va uning ilovasida keltirilgan chizma va grafiklarning talablarga mosligi:	- talablarga to'la mos keladi	9-10
		- chizma va grafiklarda ba'zi bir nuqsonlar uchraydi	7-8
		- chizma va grafiklarda ko'plab nuqsonlar uchraydi	5-6
		- talablarga mos kelmaydi	0-4
8.	Adabiyotlar va internetdan foydalanganlik darajasi	- me'yoriy - texnik hujjatlar ilmiy — amaliy jurnallar o'quv qo'llanmalar, darsliklar, internet tarmog'idan olingan materiallar va ma'lumotlardan samarali foydalangan	7-8
		- faqat me'yoriy-texnik hujjatlar, o'quv qo'llanmalar va darsliklar, nnternet tarmog'idan olingan materiallardan foydalangan	5-6
		- darslik, ma'ruza matnlari, texnik xujjat va internet materiallaridan foydalangan	3-4
		- darslik ma'ruza matnlari va tayyor internet materiallaridan foydalangan	0-2
9.	Kurs ishining taqdimoti:	- taqdimot mavzuni to'la qamrab olgan, reglamentga rioya qilingan, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan	9-10
		- taqdimot mavzuni to'la qamrab olgan,reglamentga rioya qilinmagan, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirildi	7-8
		- taqdimot mavzuni to'la qamrab olgan, reglamentga rioya qilingan holda amalga oshirildi	5-6
		- taqdimot chala, reglamentga rioya qilmagan holda amalga oshirildi	0-4
10.	Kurs taqdimotida o'zini tutishi va qo'shimcha savollarga javob berishi:	-o'zini ishonchli tutdi va berilgan savollarga to'la javob berdi	7-8
		- o'zini ishonchli tutdi va berilgan savollarga qisman javob berdi	5-6
		- o'zini ishonchli tuta olmadi va berilgan savollarga qisman javob berdi	3-4
		- savollarga javob bera olmadi	0-2
JAMI:			100

5. Tadqiqot mavzusi, maqsad va vazifalari

Har qanday tadqiqot ishi avvalom bor, mavzu tanlash, mavzu doirasida maqsad va vazifalarni belgilashdan boshlanadi. Tadqiqot mavzusi, maqsad, vazifalarning aniq belgilanishi va o'zaro bog'liqlik me'yori tadqiqot ishini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu-bu tadqiq etilayotgan fan sohasi yoki qandaydir tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy geografik, geokologik va geografiya ta'limining tavsifini umumlashtirib, qisqacha ifoda etilishi bo'lib, uning qamrov doirasi muhim ahamiyatga ega.

Maqsad-tadqiqotning amalga oshirilishidagi omil yoki uning natijasidir. Ya'ni, maqsad tadqiqot doirasida belgilanadi yoki aksincha, uning nimaga erishmoqchi ekanligini ifoda etadi.

Vazifa-esa, maqsadga erishish uchun belgilangan tadbirlar tizimi bo'lib, sohani tadqiq etishga qanday erishish yo'nalishlarini belgilab olish demakdir.

Bu uchlik ichida maqsad doimo etakchilik qiladi. Tanlangan mavzu va uni amalga oshirish, belgilangan vazifalarning barchasi maqsaddan kelib chiqadi. Masalan, biror okrugdagi tabiiy geografik jarayonlarning sabab va oqibatlarini yohud biror hudud aholisi migrasiyasi xususiyatlarini o'rganish, yoki geografiya ta'limi samaradorligini oshirishni maqsad qilib olinsa, shu okrugning tabiiy geografik jarayoni, hudud aholisi migrasiyasi xususiyatlari, geografiya ta'limiga oid mavzular tadqiqot mavzusi sifatida olinadi va vazifa shundan kelib chiqqan holatda belgilanadi. Vazifaning bunday qo'yilishi amaliy tadqiqot hisoblanadi. Agar, okrugning tabiiy geografik sharoitini baholash yoki aholi migrasiyasini tartiblash qonunchiligini o'rganish maqsad qilib olinsa, demak, tadqiqot nazariy ahamiyatga ega va nazariy tadqiqot ishi hisoblanadi.

Ba'zan bir tadqiqot ishida maqsad va vazifa ham amaliy ham nazariy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Ko'pchilik nazariy tadqiqot ishlari yakunida amaliy ahamiyatlarning yuzaga chiqishi yoki aksincha, amaliy tadqiqotlar natijasida nazariy xulosalarga erishilishi mumkin. Biroq, tadqiqot ishlarida maqsad va vazifalarning qanchalik aniq qo'yilganligi yoki ixchamligi ham uni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, tadqiqot mavzusi, maqsad va vazifasidan tadqiqot ob'ekti hamda predmeti kelib chiqadi. Yuqoridagi mavzuga ko'ra, tadqiqot **predmeti** sifatida tabiiy geografik jarayon, migrasiya yoki dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar belgilansa, tadqiqot ishi **ob'ekti** sifatida ma'lum okrugdagi tabiiy geografik jarayon turlari, hududdagi migrasion jarayonlar, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish usullari olinadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida tabiiy geografik jarayon turlari, masalan, surilma, eroziya, zilzila, nurash, karst jarayonlari va h.k., aholining ma'lum qatlamini, masalan: o'qituvchilar, vrachlar, shaxtiyorlar, quruvchilar, ya'ni biror tarmoqning rivojlanishi sababli ko'chib keluvchilarni o'rganishni ham olish mumkin.

Tadqiqotlarda muammoning o'rganilganligi darajasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasdan mavzu tanlash faoliyatning mantiqsizligini ifodalaydi. Chunki, qo'yilayotgan muammoning echimi to'g'risida qaysidir tadqiqotchi allaqachon tavsiyalar berib o'tgan bo'lishi mumkin. Agar, mavzu o'rganilgan bo'lsa ham

tadqiqotchi muammoning hali echilib ulgurilmagan jihatlarini izlab topishi va maqsad aynan shu jihatlarni tadqiq etishga qaratilishi lozim.

Tadqiqot usullarini to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanish ishning qiymatini oshiradi. Tadqiqotlarda tadqiqot usullari dialektik usullarining tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim, tarbiya va o'qitish jarayonlaridagi metodik usullardan birmuncha farq qiladi. Biroq, mavjud tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, kuzatish, ekspedisiya, anketa so'rovlari asosida suhbat, eksperiment va tajriba usullaridan geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda ham foydalaniladi. Masalan, tadqiqot qilinayotgan ob'ekt haqidagi axborot va xizmatlarni o'rganib chiqish usuliga har qanday tadqiqotda zaruriyat tug'iladi yoki eksperiment va tajriba usuli bugungi kunda geografik, iqtisodiy va metodik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Chunki, fanda biror yangilik yoki modelni to'g'ridan to'g'ri amaliyotga tadbiiq etish mumkin emas, ya'ni, agar u tajribada sinalmagan bo'lsa, sohada kamchiliklarni keltirib chiqaradi.

SHuningdek, geografik, iqtisodiy va metodik tadqiqotlarning xususiy metodologiyasi tabiat sharoit va resurslaridan, inson omilidan unumli foydalanishga, ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishga, geografiya ta'limida foydalaniladigan usullarni takomillashtirishga asoslanadi. Geografik, iqtisodiy va metodik tadqiqot usullari asosan quyidagilar:

- Adabiyotlar bilan ishlash usuli;
- kuzatish usuli;
- pedagogik eksperiment;
- tajriba usuli;
- geoximik va geofizik usullar;
- geografik taqqoslash usuli;
- tarixiy qiyoslash usuli;
- ekspedisiya yoki dala usuli;
- paleogeografik usul;
- matematik usul;
- statistik usul;
- iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli;
- me'yoriy balans hisobi usuli;
- kartografik tadqiqot usuli;
- so'rovlar o'tkazish usuli;
- rayonlashtirish usuli;
- omillarni tahlil qilish usuli;
- aerokosmik tadqiqotlar usuli;
- bashoratlash usuli v.b.

1. Adabiyotlar bilan ishlash usuli. Har qanday ilmiy ish shu sohada e'lon qilingan adabiyotlarni o'rganish, taxlil qilish va umumlashtirish bilan boshlanadi. Mazkur usul yordamida boshqa tadqiqotchilar tomonidan olingan ma'lumotlar to'planadi va o'rganiladi va umumlashtiriladi. Masalan, geografiya ta'limi metodikasida quyidagi soxalar bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va taxlil qilingadi: ta'lim bo'yicha davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar, qarorlar va boshqa xujjatlar; bilish nazariyasi bo'yicha falsafiy adabiyotlar o'rganiladi; mantiq, psixologiya va didaktika bo'yicha ma'lumotlar o'rganiladi va taxlil qilinadi: o'qitish

metodikasi bo'yicha e'lon qilingan ilmiy ishlar alohida taxlil qilinadi. Adabiyotlar taxlili amalga oshirilgandan so'ng o'rganilayotgan muammoning dolzarbligi, o'rganilmay qolgan jihatlari aniqlanadi.

2. Kuzatish. Eng keng tarqalgan pedagogik tadqiqot usuli hisoblanadi. Mazkur usul pedagogik jarayonni bilishni eng muxim usullaridan biri hisoblanadi. Har qanday o'qituvchi darsni kuzata bilish qobiliyatiga ega bo'lmog'li lozim. Kuzatish metodikasi tuzilishi, mazmuni, turi, kuzatish texnikasi o'rganilayotgan muammoni mohiyati va xususiyatlari, tadqiqod metodlariga bog'liq. Kuzatish turli xil bo'ladi, ular dasturi, tashkil qilinishi va maqsadiga ko'ra ma'lum bir guruxlarga bo'linadi. Kuzatish obektlari o'quv ishlari usullari, darslarda o'quvchilarni tashkil qilish, uyga vazifa berish, o'qitish metodlarini, vositalarini tanlash hisoblanadi.

3. Pedagogik eksperiment. Pedagogik tadqiqotlar eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. O'ning yordamida har bir o'qitish metodlarni avzalliklarini aniqlash mumkin.

I.S. Matrusov fikricha pedagogik eksperiment deganda nazorat qilinayotgan va xisobga olinayotgan sharoitda tadqiq qilinayotgan pedagogik jarayonlarni kuzatishga imkon beradigan ilmiy jihatdan tashkil qilingan ta'lim va tarbiya tajribasidir. Pedagogik eksperimentning maqsadi o'rganilayotgan voqea va hodisalarni qonuniyatlarini aniqlash, u yoki bu metodik masalani mohiyatini ochib berishdir.

Pedagogik eksperimentga quyidagi talablar quyiladi.

-pedagogik eksperiment mukammal darajada loyihalashtirilgan bo'lmog'i lozim;

-u metodologik jihatdan asoslangan gipotezaga tayanmog'i lozim;

-o'rganilayotgan muammo o'zida qarama-qarshiliklarni va yangiliklar kurtagini aks ettirmog'i lozim;

Pedagogik eksperiment o'tkaziladigan vaqti, o'rganilayotgan hodisalar tarkibi, tashkil qilinishiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Pedagogik eksperimentlar o'tkazilish vaqtiga ko'ra qisqa va uzoq muddatli, o'rganilayotgan hodisani tarkibiga ko'ra oddiy va murakkab, tashkil qilinishiga ko'ra tajribali (bir gurux o'quvchilar bilan o'tkaziladi), tabiiy (bir sinf bilan, yoki bir necha maktabdagi bir xil sinflar bilan o'tkaziladi), kompleks eksperimentlarda tajriba va tabiiy usullar uyg'unlashgan holda qo'llaniladi.

Oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra pedagogik eksperimentlar tasdiqlovchi, (mavjud qoidalarni) shakillantiruvchi yoki yaratuvchi, nazorat qiluvchi yoki nazorat.

Pedagogik eksperiment yordamida nazariy hollar tekshiriladi, ta'lim va tarbiya jarayoni haqida to'la va aniq ma'lumotlar olishga imkon beradi.

4. Tajriba usuli. «Eksperiment» va «Tajriba» tushunchalarini chalkashtirmaslik lozim. Eksperemental ishlar aniq xisobga olinadigan sharoitlarda o'tkaziladi, uning natijasida aniq bir nazariy xollar olinadi. SHuning uchun eksperment natijasida aniq maksadlar amalga oshiriladi. Tajriba ishlari yordamida yoki ishlab chiqarilgan usullar o'quv jarayoniga qanday ijobiy ta'sir qilgani aniqlanadi. Qisqa qilib aytganda pedagogik eksperiment natijasida olingan nazariy xolatlarni amalda qo'llash mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun o'qitish eksperimental va asosiy sinflarda bir vaqtning o'zida olib boriladi.

tajriba ishlari eksperimental tadqiqotlar asosida yaratilgan metodik tizimlarni samaradorligini tekshirish vositasidir.

5. Geografik taqqoslash usuli. Geografik taqqoslash usuliga ko'ra tadqiqot ishi tabiiy geografik, iqtisodiy geografik, metodik yo'nalishlarda olib boriladi. Geografiya ta'limir metodikasidan ilmiy tadqiqot ishi olib borilganda taqqoslash usuli yordamida fandagi va maktab geografiyasidagi bilimlar tizimi, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar, o'quv vositalari, baholash usullari, dars turlari tanqidiy nuqtai nazardan taxlil qilinadi. Bu esa tatqiq qilinayotgan muammoni umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi.

Tabiiy geografik tadqiqotlarda mazkur usul qadimdan qo'llab kelinadi. Hozirgi davrda ham mazkur usul geografik tadqiqotlar olib borishning asosiy usuli hisoblanadi. Qiyosiy-tavsif usuli turli hududlarni relefini, iqlimini, ichki suvlarini, o'simligi, tuproq, hayvonot dunyosi, tabiat zonalari va landshaftlarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Mazkur usuldan ayniqsa mamlakatshunoslikdan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida ko'proq foydalaniladi.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda taqqoslash usuli quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borish maqsadga muvofiq:

A) tarmoqlar bo'yicha

B) rayonlar bo'yicha

V) korxonalar, firma, fermer xo'jaliklarning xo'jalik faoliyati

O'rganilayotgan mavzu tarmoqlar bo'yicha tahlil etilganda, ma'lum soha yoki tizimning biror tarkibini tadqiq etishga urg'u beriladi. Masalan, sanoat tarmog'i yoki uning tarkibiy qismlari (mashinasozlik, energetika, qurilish materiallari, ishlab chiqarish va boshq.), qishloq xo'jaligi yoki uning tarkibiy qismlari, (dehqonchilik, chorvachilik)ga urg'u beriladi.

Rayonlar bo'yicha o'rganishda esa, ma'lum tabiiy yoki iqtisodiy geografik o'ringa ahamiyat beriladi. Masalan, Surxondaryo viloyatining Termiz, Angor, Muzrabot tumanlarini Amudaryo bo'yi rayonlari deb olsak, Amudaryo bo'yida bu rayonlarning joylashganligi tabiiy geografik o'rni sifatida qaralsa, xo'jalik iste'moli uchun suvni aynan Amudaryodan olinishiga ko'ra, iqtisodiy geografik o'rni ham o'xshashligini ko'rish mumkin.

Agar biror xo'jalik o'rganish ob'ekti sifatida olinsa, xo'jalikning boshqaruv tizimi yoki xo'jalik yuritishni tashkil etishdagi yutuqlar yoki kamchiliklarni o'rganish imkoniyati yuzaga keladi. Ma'lumki, bu yutuqlarni targ'ib qilish yoki kamchiliklarni bartaraf etish iqtisodiyotdagi samarali o'zgarishlarni hosil qiladi. Masalan, Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumanidagi yashash maydonlarini olib qaraylik, ular joylashuviga ko'ra daryo qirg'og'ida joylashgan. Suv Amudaryodan olinadi va oqova ham Amudaryoga quyiladi. Agar sholi maydonlari egallagan hududda baliqchilik xo'jaligi tashkil qilinsa, ishlab chiqarish bir necha 10 hissaga oshishi mumkin.

Agar biror xo'jalik o'rganish ob'ekti sifatida olinsa, xo'jalikning boshqaruv tizimi yoki xo'jalik yuritishni tashkil etishdagi yutuqlar yoki kamchiliklarni o'rganish imkoniyati yuzaga keladi. Ma'lumki, bu yutuqlarni targ'ib qilish yoki kamchiliklarni bartaraf etish iqtisodiyotdagi samarali o'zgarishlarni hosil qiladi. Masalan,

Surxondaryo viloyatidagi sholi maydonlarini olib qaraylik, ular joylashuviga ko'ra daryo qirg'og'ida bo'lib, suv Amudaryodan olinadi va oqova ham Amudaryoga quyiladi. Agar, sholi maydonlari egallagan hududda baliqchilik xo'jaligi tashkil qilinsa, ishlab chiqarish mahsuldorligi bir necha 10 hissaga oshishi mumkin, hatto, O'zbekiston uchun Mo'ynoqdagi yo'qolib ketgan xo'jalikni qayta tiklash imkonini beradi.

6. Tarixiy qiyoslash usuli. Atrofimizda sodir bo'layotgan tabiiy geografik, iqtisodiy ijtimoiy hodisalar, ta'limning rivojlanishi, ularning buguni va ertasi bevosita fanning, shuningdek, joyning tarixi bilan bog'liq. Fikrimizning isboti sifatida "quyidagi tarixiy voqeani esga olish zarur bo'lib qoldi: Buyuk Bobil qadimda sharqning eng go'zal va badavlat o'lkasi, ilmu-ma'rifat, iqtisod va ma'naviyat o'chog'i bo'lib kelganligi hammaga ma'lum. Lekin shunday ulug'vor o'lkaning vayronaga aylanib tarix sahifalaridan o'chib ketishiga bosqinchilar yoki dushman qo'shinlar emas, balki mamlakatning bosh mirobi yo'l qo'ygan bir xato sabab bo'lgan ekan. Ma'lumki, Bobilning xo'jalik tizimi ham xuddi bizdek ikki ulug' daryo ya'ni Tigr va Efrat suvlaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, suvning ma'lum hajmi sug'orish ishlariga olinib, qolgan qismi esa dengizga oqib turgan. SHu tufayli qishloq xo'jaligida yaxshi hosil olib turishdan tashqari, qirliklardan yuvilib keladigan loyqa, qum, shag'al va tuz bilan hosildor erlarning buzilishidan asrab qolgan.

Eramizdan avvalgi 582-yilda Xoldey shohi Navxudonosir katta imperiyaga hukmronlik qilish orzusida Misrni ham qo'shib oladi. Uning go'zal malikasi Nitokrisga uylanadi. Albatta, malikaning ayrim injiqliklari va talablarini bajarishga majbur bo'ladi. Nitokris xonimning iltimosi bilan uning Misrdan kelgan qarindoshi bosh mirob vazifasiga tayinlanadi, unga katta mablag' va ishchi kuchi topshiriladi. Tez orada Bobil atrofidagi tekisliklardan yuzlab kilometrga katta kanal qazilib, minglab gektar yangi erlarda sug'orish ishlari boshlanadi. Natijada, Efrat daryosining suvi kamayib, oqimi sustlashib qoladi va suv bilan kelgan loyqa aralash qum-shag'al va tuz eritmasi, erlarga va kanallarga o'tirib qola boshlaydi, erlarni sho'r bosishi oqibatida dehqonchilik qilishi mumkin bo'lmay qoladi. Bug'doyzor, arpazor va boshqa ekinlar keskin kamayib yo'qola borgach, juda katta otliq qo'shnlari ham, aholi ham qahatchilikdan qirila boshlaydi va nihoyat eramiz boshlarida shunday buyuk imperiyadan hashamatli qasrlarning xarobalari-yu, oppoq tuz bosgan bepoyon tekisliklar qoldi, xolos."¹

7. Matematik usul. Tadqiqot natijalarini tahlil etish uchun matematik usulni qo'llash katta imkoniyat yaratadi. O'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tatqiqotlar natijalarini hisobga olish va ularni umumlashtirish maqsadida ko'rsatiladi. Miqdoriy ko'rsatgichlarni tanlash ularni tartibga keltirish va taxlil qilish metodik tatqiqotlarda katta ahamiyatga ega. CHunki ular juda ko'p pedagogik tatqiqotlarning o'lchami hisoblanadi. Miqdoriy ko'rsatgichlar yordamida tarbiya va o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik vositalarning qanchalik foydaliligini aniqlash mumkin. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, matematik usul ikki yoki undan ortiq holatlar o'rtasidagi ishonchli farqlarni qayd qilishi mumkin. Asosan, olingan natijalarni tahlil

¹ Qayumov A., Rasulov M., Umarov S., Yakubov O'. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. T., 2005, 74-75 b.

qilish, sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hisoblashda bu usuldan keng foydalaniladi. Jumladan, ishlab chiqarish quvvatlari, mahsuldorligi yoki ular saldolarini hisoblab topish uchun bu usuldan foydalanish ancha qulay.

8. Statistik usul. Geografik, metodik va iqtisodiy tadqiqotlarda statistik usul yordamida turli – tuman omillar ta'sirida shakllanuvchi holatlarni o'rganish imkonini beradi. Bu usul bugungi kunda iqtisodiy, sosiologik, demokratik, psixologik va hatto pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda yillar yoki biror iqtisodiy rivojlanish bosqichdagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini taqqoslash, yillar davomidagi o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblab topishda foydalanilsa, sosiologik tadqiqotlarda aholining maishiy shart-sharoitlari holatini tahlil qilish yoki umumiy natijalarga erishishda, demokratik tadqiqotlarda aholining tabiiy o'sishi, mehnat resurslari dinamikasi yoki ularning ma'lum yillardan keyingi holatini prognozlashda, psixologik tadqiqotlarda aholi yoki uning ma'lum qatlamining ruhiy holatini tadbiq etish va uning ijtimoiy omillarini aniqlash kabi korrelyasion natijalarga erishishda foydalanish mumkin.

9. Iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli. Iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda iqtisodiy qiyosiy tahlil usulini chetlab o'tib tadqiqotni amalga oshirish mumkin emas. Chunki, har qanday iqtisodiy va iqtisodiy geografik tadqiqotda o'rganilayotgan hudud boshqa hudud bilan yoki sohaning turli hududlardagi holati tahlil etiladi. Shuningdek, tabiiy geografik tadqiqotlarda o'rganilayotgan hudud landshafti, geomorfologiyasi, iqlimiga xos xususiyatlar qiyoslanadi. Ko'pgina holatda qiyosiy tahlil etish yordamida juda muhim muammolarni va bu muammolarning paydo bo'lish omillarini tadqiq etish imkonini beradi. Masalan, bir vaqtlar "Buyuk ko'llar" (Michigan, Gudzon, YUqori ko'l) AQSHning shimoli sharqidagi yirik baliqchilik markazi hisoblangan. Bu hududda sanoat korxonalarining rivojlanishi va dengiz transportlarini materik ichkarisiga kirib borishi uchun kanal qurilishi oqibatida "ilonbaliq" bu ko'llarga o'tib qoladi, asosan, uvildirliqlar bilan oziqlanadigan ilonbaliqlarning ko'payib ketishi ko'ldagi noyob baliqlarning keskin kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Natijada, XX asrning 50-yillariga qadar ko'l bilan bog'liq baliq sanoati butunlay inqirozga uchraydi. Xo'sh, endi savol tug'iladi. Bizda, O'zbekistonda (qolaversa Markaziy Osiyoda) "ilonbaliq" qanday paydo bo'lgan? Bizdagi suv havzalari okean bilan tutash emas-ku?! Hozirgi kunda "Navro'z" restorani rahbari O'. Daminov tomonidan "asyotra" balig'ini Toshkent viloyatida ko'paytirish yo'lga qo'yilgan va natija ham ancha samarali. Demak, bizda ham noyob baliqlarni ko'paytirish, shuningdek, qimmatbaho baliq mahsuloti "ikra" ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Umuman, qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli yordamida tabiat va ishlab chiqarishdagi juda dolzarb muammolarni va ularning paydo bo'lish omillarini aniqlash mumkin.

10. Me'yoriy-balans hisobi usuli. Me'yoriy va nisbat tushunchasi tabiatning eng muhim qonuniyatlaridan biridir. Hatto tabiat qonunlarining ham amal qilish me'yori mavjud. Masalan, Nyutonning "Butun olam tortishish qonuni" ga ko'ra atmosfera bosimi va erning tortish kuchi mavjud sharoitda hech bir jism havoda muallaq tura olmaydi. Biroq, bu qonun ham nisbiy, uning ham amal qilish muddati chegaralangan. "Energiyaning saqlanish qonuni" ga ko'ra samolyot uchadi va uning

dvigateli ishga tushgan zahotiyiq, Nyuton qonuni inkor etiladi va u fazoga ko'tariladi. Agar, dvigatel fazoda to'xtasa, Nyutonning "Butun olam tortishish qonuni" yana kuchga kiradi. Bu davrda "Energiyaning saqlanish qonuni" inkor etiladi. Hech qachon har ikkala qonun ham amalda bo'lib, samolyot fazoda muallaq qolmaydi. Demak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday tabiat qonunining ham amal qilish me'yori mavjud.

Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda me'yor-balans hisobi usuli keng foydalaniladi. Ma'lumki, sobiq "Ittifoq" tuzumi davrida mahsulot ishlab chiqarish aholi jon soniga nisbatan rejalashtirilar edi. Bu esa bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ilgargi tuzum tarkibidagi mamlakatlar iqtisodiyotida juda katta o'zgarishlarni sodir etadi va kezi kelganda yangi vazifalarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Endilikda, mamlakatlar don, go'sht, tuxum, sut etishtirish barobarida ichki ehtiyojlarni to'liq ta'minlashlari zaruriyati yuzaga keladi. Mamlakatlar qachonki, ichki ehtiyojni to'liq ta'minlagandagina, mahsulotlarni eksport uchun qayta ishlash va chetga chiqarish zaruriyati yuzaga keladi.

Demografik tadqiqotlarda ham me'yoriy balans hisobi usuli muhim ahamiyatga ega. Masalan, Termiz Davlat universiteti tadqiqotchisi H.Xolmo'minov o'z tadqiqot ishida arxiv ma'lumotlariga asoslanib quyidagi ma'lumotlarni keltirgan: "Ma'lumotlarga ko'ra Samarqand viloyatidan Sirdaryo tumaniga ko'chirilgan 2683 kishidan 819 kishi (30,5%)², Andijon viloyatidan Mirzacho'l tumaniga ko'chirilgan 2112 kishidan 578 nafari (27,3%), Toshkent viloyatidan Bo'ka tumaniga ko'chirilgan 1400 kishidan 320 kishi (21,5%), Qashqadaryo viloyatidan Bekobod tumaniga ko'chirilgan 2319 kishidan 725 nafari (31,2%) turli xastaliklar tufayli mehnatga layoqatsiz hisoblangan."³ Agar, O'zbekiston aholisi 2005 yilda 26 mln. kishidan oshganligini e'tiborga olinsa, hozirgi kunda mamlakatda 13,7 mln.ga teng mehnatga layoqatli aholi mavjud. Bu jami aholining 50-51 foizini tashkil etadi. Yuqorida Samarqand, Andijon, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlaridan yangi o'zlashtirilgan erlarga ko'chirilgan aholining o'rtacha 70 foizi mehnatga layoqatli hisoblangan bo'lsa, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar birmuncha yaxshilangan sharoitda ham shu ko'rsatkichga erisha olmayapmiz. Chunki, bunda aholining yosh tarkibi ham e'tiborga olinishi lozim. H.Xolmo'minov keltirib o'tgan mulohazani tahlil qilishimizdan maqsad shuki, aholining mehnatga layoqatli qismini aniqlashda ham nisbiy-me'yor mavjud bo'lib, har qanday iqtisodiy sharoitlar bosqichida ularda keskin o'zgarishlar hosil bo'lmaydi.

11. Kartografik tadqiqot usuli. Kartografik usul har bir geografik tadqiqot ishlarida qo'llaniladi. Kartografik usul yordamida tabiiy va iqtisodiy sharoitning umumiy va xususiy tomonlari tavsiflanadi. Masalan, kompleks xaritalar, tabiiy xaritalar, geologiya, tuproq, o'simlik, landshaft, qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa xaritalar. Kartografik usul geografik, metodik va iqtisodiy tadqiqotlarda kartografik tadqiqot usulidan foydalanish tadqiqot ishining vazifasida ko'zda tutilgan xususiyatlarining uyg'unligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Chunki kartalarda geografik va sosial

² Muallif hisoblab chiqqan ko'rsatkichlar.

³ X.Xolmuminov. O'zbekistonda yangi o'zlashtirilgan erlarga ko'chirilgan aholi xo'jaliklarining ijtimoiy iqtisodiy axvoriga doir (1946-1960 yillar) // "Jayxun" TerDU xabarlari 2006, №1. 31b.

iqtisodiy elementlar uyg'unligi bir-birini to'ldirish bilan birga mamlakat yoki hududning tabiati va uning boyligini, iqtisodiyotini, madaniy-ma'rifiy va tarixiy xususiyatlarini o'zida jamlagan bo'ladi. Tadqiqot ishi davomida tadqiqotchi uchun kartalardagi ma'lumotlardan foydalanishda qulaylik yaratadi yoki tadqiqot ishi natijasida tuzilishi lozim bo'lgan kartaning mukammalligini ta'minlash uchun tadqiqotchiga namuna vazifasini o'taydi. Ba'zan tadqiqot vazifasida ko'zda tutilmagan qirralarini yoki xususiyatlarini ham yoritish imkonini beradi va tadqiqot ishining mukammalligini oshiradi.

Geograf olimlar J.Qoraboev va T.Mirzalievlar ta'kidlaganidek,- "kartalardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

-kartalarni bir biri bilan taqqoslash orqali ularda ifodalangan jarayon, voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;

-tabiiy resurslar, sosial-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va tarixiy tahlil qilish va hozirgi holatini aniqlash;

-tabiiy va sosial iqtisodiy voqea, hodisa va jarayonlar taraqqiyotini o'rganish, baholash va bashorat qilish;

-tabiiy va sosial iqtisodiy voqea-hodisa va jarayonlarning geografik o'rnini, chegaralarini va ularning miqdor hamda sifat ko'rsatkichlarini karta masshtabi aniqligida aniqlash va boshqalar shular jumlasidandir".⁴

12. So'rovlar o'tkazish usuli. Mazkur usul geografiya, geografiya ta'limida keng qo'llaniladi. Bunda turli metodik ma'lumotlar uchun ma'lum bir yo'nalishda ma'lumotlar yig'iladi. So'rovnomaning mazmuni o'quvchilvar, o'qituvchilar va metodestlar uchun aloxida ishlab chiqiladi. Masalan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya predmeti bo'yicha o'qituvchi uchun so'rovnoma mazmuni o'qitish metodlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagicha bo'lishi mumkin:

- o'quvchilarni faoliyatini tashkil qilishda qanday usullardan foydalanasiz: a) yangi mavzuni o'qitishda; b)o'quvchilar bilmini tekshirishda;

- Sizni darsligingizda ko'proq qaysi metod asosiy bo'lib hisoblanadi?

- Sizni darslaringizda VIII-IX sinf o'quvchilarning ishlari nimasi bilan farqlanadi: a) xarita bilan ishlanadi; b)darslikdagi rasmlar bilan, jadvallar bilan;

- O'qituvchilar qobiliyatini qanday vositalar va usullar bilan rivojlantirasiz;

- O'quvchilarni bilish faoliyatini qaysi darajada tashkil qilasiz; a) bilimlarni tayyor xolda berasizmi? b)materialni faqat bir qismini o'zingiz tushuntirasiz? v) mavzuni o'quvchilar o'zlari mustaqil o'zlashtirishadi.

O'qituvchilardan so'rovnoma o'tkazish bilan bir vaqtning o'zida o'quvchilar bilan ham so'rovnoma o'tkaziladi. O'quvchilar uchun so'rovnoma mazmuni quyidagi jadvallarda berilgan.

So'rovnoma asosida olingan ma'lumotlar matematik usullar bilan qayta ishlanadi va umulashtiriladi. Turli viloyatlarda o'tkazilgan so'rovnomalarning javobi mos bo'lsa o'rganilayotgan pedagogik jarayonlarning to'g'riligini tasdiqlaydi.

so'rovlar usuli ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada sosiologik, aholining ijtimoiy demografik holatini o'rganishda ko'p qo'llaniladi. Anketa so'rovlari ma'lum

⁴ J.Qoraboev, T.Mirzaliev. Milliy atlaslarning maqsadi, mazmuni va ulardagi kartalarga qo'yiladigan talablar // "Janubiy O'zbekistonda geografiya maktabining shakllanishi va rivojlanishi". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Termiz, 2006, -194 b.

maqsaddan kelib chiqib, keng qamrovli tuzilganligi tadqiqotni samarali o'tkazishda muhim ahamiyatga ega. Dastlabki umumiy savollar (yashash joyi, tug'ilgan yili, millati, jinsi, ma'lumoti, mutaxassisligi, mutaxassislik bo'yicha ishlayotgan yoki ishlamayotganligi, sababi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli, farzandlar soni, bir hovlida necha kishi yashashi, oilaning o'rtacha yillik daromadi kabi savollar) har bir anketa so'rovlarida berilishi kerak. Keyingi beriladigan savollar tadqiqot mavzusiga bevosita tegishli bo'lishi lozim. Masalan, aholining ichki va tashqi migrasiyasini quyidagi savollarning bo'lishi maqsadga muvofiq:

-Siz yashash joyingizni o'zgartirishni xoxlaysizmi?

-Nima sababdan yashash joyingizni o'zgartirmoqchisiz?

-Agar boshqa joyga ko'chishni xohlasangiz, qaerga ko'chgan bo'lardingiz?

-Agar boshqa davlatga ko'chishni xohlasangiz sababini ko'rsating.

-O'zbekistonning boshqa joyiga ko'chishni xohlasangiz sababini ko'rsating.

-Hozirgi kunda oila a'zolaringiz orasida O'zbekistonning boshqa shaharlarida o'qiyotgan, ishlayotgan, yashayotganlar bormi?

-Hozirgi kunda oila a'zolaringiz orasida chet mamlakatlarda o'qiyotgan, ishlayotgan, yashayotganlar bormi?

Tadqiqotchi anketa so'rovlari natijalarini qayta ishlash yo'llarini puxta o'ylab olish zarur.

13. Rayonlashtirish usuli. Xo'jalik tizimining tarixan shakllanishi, tabiiy joylashuvi, ishlab chiqarish shakllari va shart-sharoitlari e'tiborga olingan holda, ma'lum rayonlarga ajratib o'rganish zaruriyati yuzaga keladi yoki tadqiqot natijalariga ko'ra ma'lum sohaga ixtisoslashgan hududlari, sanoat tugunlari, qishloq xo'jaligi rayonlariga ajratish mumkin.

Professor A.Soliev ta'kidlaganidek,- "Iqtisodiy rayonlar xududiy mehnat taqsimotining natijasi bo'lib, ular avvalgi tizimda xalq xo'jaligini planlashtirish uchun asos bo'lar edi. Hozirda esa yagona markazdan turib davlat mulkini, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo'qoldi. Davlat planlashtirish tashkiloti (GOSPLAN) barham topdi, mulkchilik shakllari o'zgardi, u davlat tasarrufidan chiqarildi, ishlab chiqarish va boshqarishda monopoliyaga qarshi kurash, raqobat kuchaydi. Demak, shu ma'noda, modomiki, planlashtirish yo'qolar ekan, iqtisodiy rayonlar keraksizday bo'lib qoldi. Bu holat esa iqtisodiy geografiya fanining tub mohiyatiga ta'sir qiladi. Chunki uni iqtisodiy rayonlarsiz mutlaqo tasavvur etib bo'lmaydi. Aslida esa iqtisodiy rayonlar tizim tarkib qoidasiga muvofiq saqlanib qolaveradi, faqat ularning maqsadi o'zgaradi xolos. Hozirgi sharoitda iqtisodiy rayonlar davlatning ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi va uni ayni paytda ular mamlakat iqtisodiy makonining ichki xususiyatlarini o'rganishda ham, o'ziga xos usul sifatida zarurdir".⁵

14. Omillarni tahlil qilish usuli. Geografik tadqiqotlarda muammoning kelib chiqishi yoki uni tartiblash omillarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tadqiqot maqsadi va doirasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

-Tabiiy omillar

⁵ Soliev A., Maxamadaliyev R. "Geografiya fanining ufiqlari va geograflar geografiyasi" // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 23-jild. -T.: 2003, -8 b.

- Iqtisodiy omillar
- Demografik omillar
- Etnik omillar
- Ijtimoiy-psixologik omillar va boshqalar

Omillarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: 1) sub'ektiv omillar ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yoki inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan omillar. YUqoridagi demografik, ijtimoiy-psixologik, etnik omillar shular jumlasidandir. 2) Ob'ektiv omillar ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan omillar. Masalan, qurg'oqchilik, sho'rlanish, toshqinlar, ko'chkilar, ob-havodagi keskin o'zgarishlar kabilar tabiiy omillar hisoblanib, ishlab-chiqarishning biror mavsumda izdan chiqishiga yoki butunlay inqiroziga olib kelishi mumkin.

15. Aerokosmik tadqiqotlar usuli. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda aerokosmik tadqiqot usulidan samarali foydalanish juda mazmunli va boy axborotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Aerokosmik suratlar yordamida daryolar o'zanlarining o'zgarishi, ekologik o'zgarishlar qonuniyatlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Koinotdan olingan suratlar tabiiy muhitning barcha xususiyatlari va komponentlari to'g'risida axborotlar berish, xususan, relef sharoitlari yoki shakllari, o'simlik qoplami xususiyatlari, suv, tuproq, inson mehnat faoliyati natijasida vujudga kelgan ob'ektlar, favqulodda tabiiy hodisalar (surilmalar, sel, ko'chki, eroziya va boshqalar) haqida to'liq va atroflicha ma'lumotga ega bo'linadi. SHuningdek, aerokosmik suratlar yordamida tuproq sho'rlanishi, cho'llashishning kengayishi, o'rmonli mintaqalarning kamayib borishidagi davriy o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Aerokosmik suratlar topografik, geomorfologik, gidrogeologik, gidrografik, tuproq, o'simlik, ekologik o'zgarishlar prognozi kartalarini tuzish imkonini beradi.

16. Bashoratlash usuli. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda bashoratlash usulining qo'llanishi ishlab chiqarish hajmining ortishi yoki tabiiy resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Ko'pchilik holatlarda bashoratlashda kutilgan natija yuz bermasligi mumkin. Biroq, kutilgan natija yuz bermagan holatlarda shu soha yoki tarmoq tadqiqotchilari uning omillarini izlab topishga intiladi.

Bashoratlash – tadqiqot ishining sterjeni bo'lib, u tadqiqot jarayonini boshqaradi va uni ichki mantiqiga bo'ysundiradi. Ko'pgina mashhur tadqiqotchilar bashoratlashning bo'olmaganidan ko'ra, uning xato bo'lsada, mavjudligini afzal ko'rishadi. Biror iqtisodiy yoki tabiiy jarayonni bashoratlashda, ma'lum vaqt oralig'idagi ko'rsatkichlar yoki voqealar rivoji tahlil etiladi va shu asosda jarayonning kelgusidagi holati bashorat qilinadi. Bashorat qilishda ilmiy asoslangan biror qonuniyat yoki mexanizm mavjud emas. Ba'zan iqtisodchilar statistik bashoratlash usullariga asoslanib, biror tarmoqning istiqboli to'g'risidagi 5-10 yil keyingi bashoratlarni keltiradi. Ko'pchilik holatda bu bashoratlarni o'zini oqlamadi. CHunki, u yoki bu omillar ta'sirida kutilgan natija kuzatilmaydi. SHu bois, tadqiqot bashoratlarni inkor qilib bo'lmaydi.ya'ni agar amalga oshmasa, tadqiqotchi oldiga “Nima uchun?” degan savolni qayta-qayta qo'yaveradi.

6. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanidan kurs ishlari mavzulari banki:

1. Jahon axolisining milliy tarkibi.
2. Jahon axolisining ko'chirib yurishi.
3. Evropa shaxarlari va ularning muammolari.
4. Evropaning yoqilg'i-energetika sanoati va ularning ekologik muammolari.
5. Xitoy qishloq xo'jaligi va uning tarkibiy qismlari.
6. Jaxon mashinasozlik sanoati va uning tuzilishi.
7. Jaxon qora metallurgiya sanoati va uning ekologik muammolari.
8. Ispaniya sanoati.
9. Fransiya qishloq xo'jaligi.
10. Buyuk Britaniya chorvachiligi va uning iqtisodiy muammolari.
11. AQSHning tabiiy resurslari.
12. Jaxon o'rmon resurslari va ularning tarkibiy qismlari.
13. Jaxon transporti va uning muammolari
14. AQSH sanoatining asosiy tarmoqlari.
15. AQSH qishloq xo'jaligi va uning tuzilishi.
16. Marqaziy Amerika davlatlari siyosiy kartasining shakllanishi.
17. Braziliya xo'jaligining etakchi tarmoqlari.
18. And davlatlari siyosiy kartasining shakllanishi
19. Janubi – g'arbiy Osiyo davlatlari.
20. Xindiston qishloq xo'jaligi.
21. Janubi – sharqiy Osiyo davlatlari.
22. Koreya yarim oroli davlatlari.
23. Apenin yarim oroli davlatlari.
24. Bolqon yarim oroli davlatlari.
25. Skandinaviya davlatlari.
26. O'rta dengiz bo'yi davlatlari.
27. Malay to'plam orollari davlatlari.
28. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari.
29. Buxoro viloyati turistik obektlari
30. Bekobod metallurgiya zavodi va uni tabiatga ta'siri. Quyi chirchiq tumanida fermer xo'jaligini rivojlantirish muammolari
31. Surxondaryo viloyatining rekreasion resurslari va ularni baholash.
32. Farhona vodiysi turistik obektlari
33. Janubiy Amerika axolisi va uning o'sish dinamikasi.
34. Janubiy Amerika mineral resurslari va ulardan foydalanish.
35. Prirodno'e zoni Azii. Prirodno'e osobennosti Vostochnoy Azii
36. Rossiya mashinasozlik sanoati va uning joylashishi.
37. Jahon o'rmon resurslari.
38. Toshkent viloyatining er resurslari va ularni baholash.
39. Toshkent shahrining iqtisodiy geografik sharoiti.
40. Janubiy-SHarqiy Osiyo davlatlarning mineral resurslari
41. Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat tarmoqlari.

42. Jaxon don xo'jaligi va uning iqtisodiy geografik tahlili.
43. Toshkent iqtisodiy rayonini oziq-ovqat sanoati.
44. Jizzax viloyati aholisi va uning joylanishi
45. Samarqand viloyatining sanoatini asosiy tarmoqlari
46. Vnutrennie vodo' Afriki i ix ispol'zovanie v narodnom xozyaystve
47. Narodnoe xozaystvo Avstralii
48. Jahondagi mitti davlatlar xo'jaligi.
49. Toshkent iqtisodiy rayoni sanoatining asosiy tarmoqlari.
50. AQSH qishloq xo'jaligi
51. Andijon viloyati shaharlari
52. Xonobod shahri geografik sharoiti
53. O'zbekiston don xo'jaligi va uning muammolari
54. Boltiq bo'yi davlatlari
55. Toshkent shaxar transporti tizimi
56. Farg'ona vodiysining yirik shaharlari
57. Jahon suv resurslari zahiralari va ularning iqtisodiy geografik tahlili
58. Surxondaryo aholisi va uning ekologik muammolari
59. Bekobod metallurgiya konbinati va uni tabiatga ta'siri
60. Chirchiq shahri sanoati va ekologik muammolari
61. Buxoro viloyati turistik ob'ektlari
62. SHimoliy Evropa davlatlari va ularning rekreasion imkoniyatlari
63. Surxondaryo viloyatining geoekologik sharoiti
64. Jahon yoqilg'i energetika resurslari va ulardan foydalanish
65. Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi
66. Jizzax viloyati suv resurslari
67. Naselenie Latinskoy Ameriki
68. Goroda Zapadnoy Evropo' (ekonomiko-geograficheskaya xarakteristika)
69. Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari (iqtisodiy geografik tavsif).
70. Rossiya mineral resurslari va ulardan foydalanish masalalari
71. Kanada sanoati va uning rivojlanish masalalari
72. Xitoy sanoati va uning rivojlanish muammolari
73. Toshkent viloyati shaharlarining iqtisodiy geografik muammolari
74. Toshkent viloyatining qishloq xo'jaligi
75. Chirchiq shahri sanoati va ekologik muammolari
76. Toshkent shahrining iqtisodiy geografik sharoiti
77. Janubiy-SHarqiy Osiyo davlatlarning mineral resurslari
78. Toshkent iqtisodiy rayoni sanoatining asosiy tarmoqlari
79. Rossiya mashinasozlik sanoati va uning joylashishi
80. Jahon o'rmon resurslari
81. Surxondaryo tabiiy resurslari va ulardan foydalanish
82. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni sanoatining tabiatga ta'siri
83. Toshkent viloyatining er resurslari va ularni baholash
84. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalarning qo'llanilishi va ularning tabiatga ta'siri
85. Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat tarmoqlari.

86. Toshkent iqtisodiy rayonini oziq-ovqat sanoati.
87. Navoiy viloyatining tog'-kon sanoati va uni tabiatga ta'siri
88. Navoiy viloyati sanoat korxonalarini asosiy tarmoqlari
89. AQSH sanoatini iqtisodiy tahlili
90. Samarqand viloyatining sanoatini asosiy tarmoqlari
91. Jahon aholisi sonining mintaqaviy o'zgarishi
92. Xududlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi va atrof – muhit muxofazasi (Xorazm viloyati misolida)
93. Yangi sanoatlashgan davlatlarining rivojlanish xususiyatlari
94. Jahon mamlakatlarida urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi.
95. O'zbekiston Respublikasi shaharchalari rivojlanishining iqtisodiy-geografik asoslari (Jizzax viloyati misolida)
96. O'zbekiston tog'-kon sanoatining tabiatga tasiri
97. Markaziy Osiyo davlatlari tabiiy resurslaridan foydalanish
98. Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari xo'jaligining rivojlanishida iqtisodiy geografik o'rin omilining ta'siri
99. O'zbekiston aholisining tarkibiy jihatlari
100. Qoraqalpog'iston Respublikasiga iqtisodiy geografik tavsif
101. Xorazm viloyati urbanizatsiya jarayonining rivojlanish xususiyatlari
102. Yaponiyaning iqtisodiy geografik tavsifi
103. O'zbekiston er-suv resurslaridan foydalanish va ularni muxofaza qilishning ekologik muammolari (viloyatlar misolida)
104. Toshkent viloyati tumanlari rivojlanishining iqtisodiy-geografik asoslari (YU. Chirchiq tumani misolida)
105. O'zbekiston er-suv resurslaridan foydalanish va ularni muxofaza qilishning ekologik muammolari
106. O'zbekiston viloyatlari mehnat resurs salohiyatidan foydalanish
107. Jahon metalurgiya sanoatining rivojlanish xususiyatlari
108. O'zbekistonda tuproq eroziyasining yuz berish xususiyatlari va oqibatlari
109. Migratsion jarayonlarning mintaqaviy xususiyatlari (Evrosiyo materigi davlatlari misolida)
110. O'zbekiston qishloq aholi manzilgohlarini shakllanishi.
111. Qizilqum regional tog'-kon sanoati komplekslarining atrof muhitga ta'siri
112. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi va ularning landshaft-ekologik sharoitining o'zgarishiga ta'siri (viloyatlar misolida)
113. Dunyoning global muammolari.
114. Avstraliya Ittifoqining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Alisov B, Xoreev A. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira. M.: Prosvehenie, 2001.
2. G. Asanov, M.Nabixonov, I.Safarov. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: O'qituvchi, 1994 y.
3. Baxritdinov B.A. va boshqalar. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. T.: 2008.
4. Boltayev M.J. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. "Universitet" nashriyoti. Toshkent.: 2003y.
5. Pardayev G'.R. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. "Universitet" nashriyoti. Angren., 2003y.
6. A.A.Qayumov, G'.R.Pardayev, I.N.Islomov. Markaziy osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent-2015.
7. A.Soliyev. O'zbekiston hududlari ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi. T.: Mumtoz so'z, 2010 y.4. O'zbekiston respublikasi iqtisodiyoti. T.: O'zbekiston, 1998 y.
8. A.Soliyev O'zbekiston geografiyasi. T.: "Universitet". 2014. 404 b.
9. M. Sokol. Economic geography. UK London. 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik va har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. G'G' Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil. 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston". 2017.
3. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.
4. Sh.Mirziyoyev -Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.:O'zbekiston. 2017.
5. Gladkiy Yu.N., Lavrov S.B, Globalnaya geografiya.-M.:Drofa. 2004.
6. Rodionova I.A. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira.-M.:Yurayt. 2012.
7. Sotsialno-ekonmicheskaya geografiya zarubejnogo mira. –M.:Drofa. 2001.

Internet saytlar:

www.ziyonet.uz

www.nuu.uz

www.connect.uz

www.gov.uz